



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/2



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 2-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 2 - SON
2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



BIBIXONIM – SADOQAT, ZAKOVAT VA BUNYODKORLIK TIMSOLI Vaxobjonova Hadicha Shermuhammad qizi

Oriental universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: arab tili yo'nalishi I bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Rustamboyev Islomjon Doniyor o'g'li

Oriental universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Bibixonim (Saroy Mulk xonim)ning hayoti, uning temuriylar saroyidagi o'rni hamda siyosiy va ma'rifiy faoliyati yoritiladi. Unda Bibixonimning Amir Temur davlati boshqaruvidagi ishtiroki, shahzodalar tarbiyasidagi roli va bunyodkorlik ishlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Bibixonim, Saroy Mulk xonim, Amir Temur, temuriylar davri, Ko'ragon, Samarqand, temuriy malikalar.

Аннотация: В статье рассматриваются жизнь и деятельность Бибиханым (Сарай Мульк ханым), её роль в государственном управлении эпохи Тимуридов и влияние на воспитание наследников престола. Анализируется её политическая, культурная и просветительская деятельность на основе исторических источников.

Ключевые слова: Бибиханым, Сарай Мульк ханым, Амир Тему́р, эпо́ха Тимуридов, Курагон, Самарканд, тимуридские правительницы.

Annotation: This article examines the life and activities of Bibikhanym (Saray Mulk Khanum), highlighting her role in the Timurid court and her contribution to state affairs and royal education. Her political influence, patronage of education, and historical significance are analyzed based on historical sources.

Keywords: Bibikhanym, Saray Mulk Khanum, Amir Timur, Timurid period, Guragan, Samarkand, Timurid queens.

Bibixonim – temuriy malikalarining eng ko'zga ko'ringanlaridan biri hisoblanib, o'z zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi edi. Asl ismi Saroy Mulk xonim. Uning Bibixonim deb atalishiga ikki xil qarash mavjud. Birinchi qarashga ko'ra, xon avlodiga mansub bo'lganligi uchun barcha temuriy malikalardan ulug' hisoblanib, uni "Katta xonim", ya'ni "Bibixonim" deb atashgan [5, B.3.]. Ikkinchi qarashga ko'ra, Amir Temurning yurishlarida g'alabalar yor bo'lgani sari katta malikaning ham obro'-e'tibori osha boradi. Ko'p o'tmay, uni ulug' malika sifatida "Bibi Xonim" deb atay boshlaydilar [2, B.79.]. Bu ikki qarash Bibixonimning nafaqat nasl-nasab jihatidan, balki siyosiy nufuz va shaxsiy fazilatlar bilan ham yuksak maqomga ega bo'lganini ko'rsatadi. Uning nomi davlat qudrati va sulola sha'ni bilan chambarchas bog'liq bo'lib qolgan.

Saroy Mulk xonim 1341-yilda tug'ilgan. Bolalik paytlarida otasi – Chig'atoy ulusiga mansub bo'lgan mo'g'ul xoni Qozonxon vafot etadi. Chig'atoy xonlaridan Qazog'onning nabirasi Amir Husayn 1355-yilda Saroy Mulk xonimni nikohiga oladi. 1370-yilda Amir Temur Amir Husayn bilan jang qilib, uni yengadi va qatl qilishga buyuradi. Shu jangdan so'ng Amir Temur bilan Saroy Mulk xonimning



hayot yo'llari tutashadi. Amir Temur Amir Husaynning sobiq ayoli Saroy Mulk xonimni idda muddati tugaganidan keyin o'z nikohiga oladi. Saroy Mulk xonim sababli Amir Temur "Ko'ragon" unvoniga sazovor bo'ladi [1, B.60.]. Mazkur unvon Sohibqironning siyosiy mavqeini mustahkamlashda muhim omil bo'lgan. Bu esa Saroy Mulk xonimning temuriylar davlatidagi o'rnini yanada yuksaltirgan.

Bibixonim oqila, bilimdon, benihoyat go'zal ayol bo'lgan. Xon qizi bo'lgani va o'ta aql bilan ish qilganligi sababli Amir Temur haramidagi boshqa malikalardan obro'si baland edi. Amir Temur barcha malikalar orasida Bibixonimga alohida e'tibor qaratgan. Saroydagi ichki tartib-intizom, xotin-qizlarga bosh bo'lish, shahzodalarning tarbiyasi, mehmondorchilik, to'y va marosimlarni tashkillashtirish kabi ishlar Bibixonim zimmasida bo'lgan. Bibixonim haram sha'ni uchun mas'ul bo'lishdan tashqari, temuriylar saroyida tug'ilayotgan shahzodalarning sog'ligi, tarbiyasi va ilm olishida ham g'amxo'rlik qilgan. Saroyda barcha malikalar shahzodalar tarbiyasi bilan shug'ullangan bo'lsalar-da, Saroy Mulk xonimning shahzodalar tarbiyasi maktabi nihoyatda nufuzli va oliymaqom bo'lgan. Jahonshumul shuhratga ega Mirzo Ulug'bek, Xalil Sulton, Shohrux Mirzo va boshqa shahzodalarning murabbiysi va muqavviysi bo'lgan Bibixonim birgina shu xizmatlari bilan ham tarixda mangu nom qoldirishga haqlidir.

Saroy Mulk xonim shu bilan birga saltanatni boshqarishda ham faol ishtirok etgan. Amir Temur davlat ishlariga ayollarning aralashuviga ruxsat bergan. Jumladan, Bibixonim yirik davlat arbobi darajasiga ko'tarilgan zukko va tadbirkor ayol edi. Amir Temur Bibixonim biron masalada maslahat bersa, avval pisand qilmaganday eshitar, so'ng mulohaza va mushohada qilib ko'rib, uning maslahatiga amal qilar edi. Chunki Amir Temur Bibixonimning aql-idrokiga va tadbirkorligiga ehtiyoj sezardi. Bibixonim Amir Temursiz elchilarni qabul qilganida ham, Samarqand taxtini Sohibqiron safarda bo'lgan paytlarda boshqarib turganida ham yirik siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarda o'zboshimchalik bilan qarorlar qabul qilmagan.

Amir Temur yurishlarida Saroy Mulk xonim ko'pincha uning yonida bo'lgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Amir Temur Eronga yurish qilganida qamal uzoq cho'zilib, qo'shin ozuqa bilan ta'minlashda mablag' yetmay qoladi. Shu payt Sohibqiron poytaxt Samarqandga xat yuboradi. Saroy Mulk xonimga kelgan bu xatda: "Qo'shinning zaxirasi tugadi, saroydan zar yuboring", - deyiladi. Saroy Mulk xonim buni o'qigach, maktubning orqa tomoniga: "Ulug' Amir, zaringiz tugagan bo'lsa, siyosatingiz ham tugadimi?" – deb yozib, chopar orqali yuboradi. Amir Temur maktubni o'qigach, Bibixonimning kinoyasini mushohada qilib, vaziyatga yechim topadi [6, B.55.]. Ushbu voqea Bibixonimning siyosiy tafakkuri va vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyatini yaqqol namoyon etadi. Bu uning davlat ishlarida faqat ramziy emas, balki amaliy ta'sir kuchiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Bu voqea Bibixonimning zukkoligi va mulohazakorligini yaqqol namoyon etadi. Shu sifatlari bois Amir Temur Saroy Mulk xonimni o'ta hurmat qilgan va yaxshi

ko'rgan. Amir Temurning yurishlarida g'alabalar ko'paygani sari Bibixonimning ham obro'-e'tibori oshib borgan. Hatto Amir Temur Hindiston yurishidan qaytgach, o'zining ulug' bekasi Saroy Mulk xonim sharafiga "Bibixonim" masjidini qurdirgan [5, B.6.]. Mazkur me'moriy obida Bibixonimning tarixiy nufuzini abadiylashtirgan yodgorlik sifatida qadrlanadi. U Temuriylar davri me'morchiligining yuksak namunalaridan biri hisoblanadi.

Bibixonim Sohibqiron bilan birga urushga bormagan paytlarida saroyda rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan ko'plab odatlarga islohot kiritgan. Saroy boshqaruvida turgan Saroy Mulk xonim Sohibqiron urushda bo'lganida saroyda yuz berayotgan voqealar va oilaga oid masalalar haqida uni doim xabardor qilib turgan. Bunga yaqqol misol sifatida Mirzo Ulug'bekning tug'ilishi haqidagi xabarni keltirish mumkin. Amir Temur Martin shahri qamalida turgan paytda Bibixonimdan Shohrux Mirzoning o'g'li Mirzo Ulug'bek tug'ilgani haqida maktub keladi. Bu xabarni o'qib quvongan Amir Temur Martin ahlini o'z podshohiga tortiq qiladi [7, B.171.]. Bu hodisa sulola davomiyligi va vorislik masalasining naqadar muhim bo'lganini ko'rsatadi. Shahzodaning tug'ilishi siyosiy barqarorlik timsoli sifatida qabul qilingan.

Ba'zi tarixiy manbalarda Shohrux Mirzo Saroy Mulk xonimning farzandi ekani aytiladi. Boshqa manbalarda esa Sohibqiron Saroy Mulk xonimdan farzand ko'rmaganligi qayd etiladi. Bu o'rindagi tafovutni mehr-muhabbat va o'zaro hurmat to'ldirgan.

Saroy Mulk xonim ilm-ma'rifatga alohida e'tibor bilan qarar, tolibi ilmlarga qo'lidan kelgancha yordam berib, homiylik qilgan. Bibixonim tolibi ilmlar uchun o'z zamonasida nihoyatda hashamatli madrasalar qurdirgan. Saroy Mulk xonim qurdirgan madrasa Samarqanddagi madrasalar orasida mahobatlilik bilan ajralib turgan. Unda zamonasining yetuk mudarrisleri tolibi ilmlarga diniy va dunyoviy ilmlardan saboq bergan. Bibixonim madrasa tolibi ilmlarining ahvolidan tez-tez xabar olib, ularning ehtiyojlarini qondirib turgan. Bu jihatlar uning oliyjanob va ma'rifatparvar temuriy malika bo'lganini ko'rsatadi.

Bibixonim har doim Amir Temurning eng yaqin hamrohi bo'lgan. Hatto Sohibqironning oxirgi nafaslariga ham guvoh bo'lgan [2, B.85.]. Bu holat Bibixonimning Sohibqiron hayotidagi eng yaqin va ishonchli insonlardan biri bo'lganini tasdiqlaydi. U faqat malika emas, balki sadoqatli hamroh sifatida ham tarixda qolgan. U O'trordagi eng mehribon yo'ldoshi va mahrami edi. Saroy Mulk xonimning Amir Temur ayoli sifatida bu xonadondagi o'rni va xizmati alohida tahsinga loyiqdir.

Amir Temur vafotidan keyin Xalil Sultonning xotini Shodi Mulk Bibi Xonim bilan Tuka xonimni zaharlab o'ldiradi. Xalil Sulton – nabira shahzoda – Sohibqironning vasiyatini buzib, taxtni qonuniy shahzodaga bermasdan, zo'ravonlik bilan Samarqandni egallaydi. Davlat ishlarida qat'iylilikni yaxshi bilgan Bibi Xonim bu xatti-harakatlarni ma'qullamagan ko'rinadi. Tuka xonim ham katta malikani qo'llab-quvvatlagan bo'lishi mumkin. Ikki malikani zaharlashi Shodi

Mulkning Xalil Sultonning taxtda qolishi uchun qilgan makri oqibati bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bu voqea taxminan 1408-yillar atrofida sodir bo'lgan [2, B.124.]. Mazkur voqea temuriylar saroyidagi ichki siyosiy kurashlarning keskinlashganini ko'rsatadi. Bu davr sulola ichidagi hokimiyat uchun raqobat va murakkab siyosiy jarayonlar bilan xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Bibixonim nafaqat Amir Temurning suyukli malikasi, balki o'z aql-zakovati, yuksak did-farosati va ulug'vorligi bilan tarixda chuqur iz qoldirgan buyuk siymodir. Uning nomi bilan bog'liq obidalar va ezgu ishlar bugungi kunda ham xalqimiz uchun faxr va iftixor manbai bo'lib xizmat qiladi. Bibixonim siymosi sadoqat, donolik va matonat timsoli sifatida avlodlar xotirasida abadiy yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Bo'riboyev, Omonulla. Amir Temur ajdodlari. Toshkent: "Qomuslar" bosh tahririyati, 1992.
2. Ravshanov, P. Amir Temur sulolasi. Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2014.
3. Isaxonova, Shahodat. Bibixonim. (Nashriyot va nashr yili ko'rsatilmagan).
4. Klavixov, Rui Gonsales. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2010.
5. Fayziyev, Turg'un. Temuriy malikalar. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi "Xalq merosi" nashriyoti, 1994.
6. Fayziyev, Turg'un. Temuriylar shajarasi. Toshkent: "Yozuvchi"; "Xazina" nashriyotlari, 1995.
7. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 1997.
8. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 1996.